

OVOZ KAMCHILIKLARINING UCHRASHI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Voxidova Munira

Namangan davlat pedagogika instituti oqituvchisi

Qosimova Marhabo

Maxsus pedagogika yo`nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ovoz, ovoz kamchiliklari haqida ma`lumot hamda ovoz kamchiliklarining kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish haqida nazariy ma`lumotlar berilgan hamda pedagogic tahlil qilingan, tavsiyalar ishlab chiqilgan

Kalit so`zlar: ovoz, otorinologiya, disfoniya, fonosteniya, gipotonus, psixoterapiya

Ovoz inson hayot faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ovoz-bu un naychalarining elastik tebranishi natijasida hosil b`oladigan turli xil tovushlarning `oziga xos xususiyatlari majmuasidir. Otorinologiya faning rivojlanishi sababli foniatriya degan yangi fan, mustaqil b`olib ajralib chiqdi. Foniatriya- ovoz apparati kasalliklarini vujudga kelishi va ularni davolash yo`llarini `organadi. Fonopediya-logopediya fanining bir b`olimi. U maxsus pedagogik yo`llardan foydalanib ovozni t`og`rilash bilan shu`gullanadi. Bu fanlarning barchasi ovozni maxsus mashqlar bilan yo`lga q`oyib t`og`rilashni bildiradi. Ma'lumki ovoz hosil b`olishida: diafragma, `opka, bronxlar, traxeya, halqum, hiqildoq, burun b`oshli`gi va uning yuz, peshona suyaklari orasida joylashgan q`oshimcha kovaklari ishtirok etadi.

T`oliq ovoz ovoz apparatini hosil qiluvchi organlar `ozaro moslikda ishlaganlaridagina yuzaga keladi. Ulardan birining patologik holati ham ovozga salbiy ta'sir etadi. Ovoz apparati tuzilishiga kirmagan a'zolarining kasallanishi ham uning t`oliq ishlamasligiga olib kelishi mumkin.

Bu a'zolar qatoriga birinchi navbatda nerv tizimi kiradi. Chunki kuylash va s`ozlashda markaziy va periferik nerv tizimlari katta rol `oinaydi.

Nutqni talab etuvchi kasb egalarida ovoz buzilishi ruhiy travmalarga olib kelib, unga bir qancha faktorlarning ta'siri natijasida nerv kasalliklari kelib chiqishi mumkin. Bemorlarda disfoniya tez charchash hissiy `ozgaruvchanlik, uyqusizlik bilan umumlashib keladi.

V.A.Kurheva(1986) aytishiga k`ora disfoniyaning barcha formalari mono va polieto-patogenetik shaklda psixoemotsional va barometrik faktorlar ta'siri ostida b`oladi. Ovoz apparatidagi buzilishlar asosan 80 yoshdan keyin yuzaga kelib, bu t`oqimalar egiluvchanligining y`oqolishi, k`okrak qafasi va umurtqadagi `ozgarishlar ularning kamharakatchan b`olib qolishi natijasida kelib chiqadi.

Ovoz buzilishlari kelib chiqish sababiga kóra markaziy va periferik qismlarga bólinadi, ularning har biri organik va funksional bólishi mumkin.

Organik ovoz buzilishlari asosan ovoz apparatida anatomik ózgarishlar va surunkali shamollash natijasida paydo bólad.

Funksional ovoz buzilishlari nisbatan keng tarqalgan va turli tumandir. Funksional buzilishning sabablari turlicha bólishi mumkin: ya'ni ovozning charchashi, ovozni yomon bólishi, infeksiyon kasalliklar hamda psixik omillarning ta'siri.

Fonosteniya- bu ovozning funksional buzilishi bólib, nafas fonatsiya, artikulyatsiya órtasidagi koordinatsiyaning buzilishi bilan xarakterlanadi.

Gipotonus disfoniya (afoniya) ovoz boylamlari muskullari tonusining pasayishi natijasida ovoz buzilishidir.

Gipertonus disfoniya (afoniya) - bu ovoz boylamlari muskullari tonusining oshishi bilan ovozning buzilishi tushuniladi.

Ovoz kamchiliklari, kópincha ovozdan notógrri foydalanish natijasida va kóp hollarda katta ovoz yuklamasi bilan boqliq bólgan kasb kishilarida va qóshiq aytuvchilarda uchraydi. Ovoz kamchiliklari insonda bir qator kamchiliklarni keltirib chiqaradi. Xulosa órnida aytishimiz mumkunki ovoz buzilishlarini oldini olish uchun ovozdan órtacha balandlikda foydalanish kerak.

Sózlash va qóshiq aytish jarayonida gígina qoidalariga rioya qilmaslik, ovozning zóriqishi, eshitishning pastligi, hiqildoq kasalliklari, ópka bronxlar, traveya, yurak va qon tomir sistemasi kasalliklari, artikulyatsion apparat faoliyati va tuzilishidagi patologik ózgarishlar va sabablarga kóra ovoz funksiyasi buzilishi mumkin. Ovozdan notógrri foydalanish, asab kasalliklari, ruhiy travmalar, funksional ovoz buzilishlarini vujudga keltirishi mumkin. Ovoz nuqsonlarining kópchilik turlari boshqa nutq nuqsonlariga qóshilib shular bilan birga davom etib boradi

Ovoz nuqsonlarini aniqlashda

-nutq apparatining qaysi tomonlari harakatchanligi, idrok etish qobiliyati buzilgani

-analizatorning qaysi markaziy periferik bólimi ishdan chiqqanini

-kamchilikning tabiati qanday organik funksional ekanligini hisobga olish lozim.

Bundan tashqari, kamchilikning qachon paydo bólganini ham aniqlab olish kerak. Ovoz nuqsonlari logopediyada quyidagi terminlar bilan ataladi afoniya, disfoniya, fonosteniya

Afoniya (lotincha tilida - inkor etish, grekcha tilida fonos - ovoz) - butunlay ovoz chiqmasligi, ovoz yóqligi. Bunda ovoz hosil qilish apparatining faoliyati yoki tuzilishidagi ózgarishlar natijasida ovoz chiqmay qolib, kishi shivirlab gapiradi. Sabablarga kóra afoniya organik va funksional bólad. Hiwildoqning ótkir va xronik kasalliklari hiqildoq mushaklarining ósmasi va falajida, ovoz boylamlaridagi ózgarishlarda, papillamatoz, hiqildoq stenozi va holazalarda organik afoniya

kuzatiladi . Funksional gipertonusli va gipotonusli afoniya , psixologen afoniyalarda hiqildoq ichidagi muskullar funksiyasi buziladi. Afoniyaning ikkala turida ham ovoz boylamlarining butunlay yoki yetarli darajada jipslashmasligi natijasida ovoz hosil bólmaydi

Disfoniya(dis buzilishni bildiruvchi yuklama, fonos - ovoz) ovoz kuchi balandligi va tembrining qisman buzilishi . Disfoniya ham hiqildoqning ótkir va xronik kasalliklari (yalliĝlanish hiqildoq mushaklarining qisman falajlanishi , turli ósimtalar va boshqalar) tufayli yuzaga keladi. Disfoniya afoniyadan farq qilib, ovoz saqlansada, u zaif, xirillab chiqadigan, titrovchi, uziluvchi bólib qoladi.

Mutatsiya tufayli ovoz buzilishi- funksional ovoz nuqsonlarining bir kórinishidir. Bu kamchiliklarni organik va funksional ózgarishlar chegarasidagi ovoz nuqsonlari guruppasiga kiritish ham mumkin. Mutatsiya - baloĝatga yetish davrida hiqildoqning tez ósishi natijasida ovoz ózgarib qolishidir. Ovoz apparatining bazi bir bólimlari órtasidagi uyĝun boĝlanishlarning buzilishi ovoz hosil bólish jarayonida payvastalik yóqolib ketishiga olib keladi, shunga kóra ovozning kuchi, tembri, balandligi aynib, ózgarib qoladi. Natijasida bola ovozi goh past, goh baland bólib chiqadi.

Hozirgi zamon Logopediya fani ovoz kamchiliklarini bartaraf etishda turli xil metodlardan foydalanmoqda. Ovozni tiklashda G.Shoppe metodi bóyicha ish olib borish maqsadga muvofiqdir. G. Shoppe 1888-yildayoq bóĝiz muskulturasiga va shilliq pardasiga tasir qiluvchi qon aylanishini regulirovka qiluvchi shilliq moddani kamaytiruvchi massaj qilish zarur deb kórsatgan edi.

Ortofonik davolashga XIX asr oxirlarida asos solindi. Bunda fonosteniya va funksional afoniyaning davolashda artikulyatsion gimnastika, nafas mashqlari, umumiy tana gimnastikasi, vibratsiya, elektr ovoz vilkalari tavsiya qilinadi. G.Shoppe bemorning nutq rejimiga alohida ahamiyat beradi va 8-10 kun davomida mutlaq tinchlik bólishi tavsiya qilinadi. G. Gutsman birinchi bólib, funksional ovoz buzilishlarini bartaraf qiluvchi ishning u yoki bu darajada mukammalroq tizimini taklif etadi.

Kompleks davolash metodi - ortopediya- funksional ovoz buzilishlarida qóllanilgan. Uning tarkibi:

- 1) psixoterapiya;
- 2) quyi qovurĝalar diafragmal nafasni tarbiyalash;
- 3) artikulyatsion gimnastika- dastlab ovoz ishtirokisiz, keyin sózlarni shivirlab aytish;
- 4) baland ovoz bilan ótkaziladigan mashqlar.
- 5) Logopedik mashqlarning maqsadi - ovozni qayta tikalshda bemorda ishonch hosil qilish hamda bolaning artikulyatsion apparati haratlarining sifati va hajmini yaxshilash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Л.Р.Мўминова, М.Ю.Аюпова. “Логопедия”, Тошкент, 1993.
2. Е.Л.Крутий. “Волшебная логопедия”, Столкер, 1999. 3. О.В.Провдина. “Логопедия”, Москва, 1977.
3. Po'latova P.M. ^9 Maxsus pedagogika: Oligofrenopedagogika /P.M.Po'latova.-T.: G 'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. 224 b.
4. Roziqova, M. (2023). Baynalminal oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. *Interpretation and Researches*, 1(1). <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/374>
5. Г.А.Волкова. “Логопедическая ритмика”, Москва, 1985.